

# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik




2023- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



# Farg‘ona viloyatida kichik tadbirkorlik

2018-2023- yillar yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), *ming birlikda*



## Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **35,8** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **7,1** mingtaga kamaygan yoki **16,5** %ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,8** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2023- yilning yanvar - iyunida **4,4** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **0,7** %ga ko‘p demakdir.

2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


## Hududlar bo'yicha 2023-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **35 848** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **4 422** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Farg'ona shahrida **5 781** tani yoki jamiga nisbatan **16,1 %** ni tashkil etdi.

## 2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Fargʻona viloyatida 2023- yilning yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



2023- yilning yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **11,8** birlikni tashkil etib, bu koʻrsatkich 2022-yilga nisbatan **0,8** birlikka koʻpaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori koʻrsatkich Quvasoy shahrida **19,1** birlik, Fargʻona shahrida **18,5** birlik, Margʻilon shahrida **13,0** birlik, Dangʻara tumanida **12,6** birlik Qoʻqon shahrida **12,5** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida 2023- yilning yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*\*

Quvasoy sh	19,1
Fargʻona sh	18,5
Margʻilon sh	13,0
Dangʻara t	12,6
Qoʻqon sh	12,5
Soʻx t	12,5
Oltiariq t	12,3
Rishton t	11,8
Oʻzbekiston t	11,7
Uchkoʻprik t	11,5
Furqat t	11,4
Fargʻona t	11,2
Toshloq t	11,1
Quva t	11,1
Yozyovon t	10,7
Bagʻdod t	9,4
Qoʻshtepa t	8,0
Buvayda t	8,0
Beshariq t	7,9

\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xoʻjaliklarini qoʻshgan holda)

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Farg‘ona viloyatida 2023- yilning yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori ko‘rsatkich

Quvasoy shahar  
19,1 birlik.

O‘rtacha ko‘rsatkich

Uchko‘prik tumani  
11,5 birlik.

Eng past ko‘rsatkich

Beshariq tumani  
7,9 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko‘rsatkich Quvasoy shahrida **19,1** birlik, Farg‘ona shahrida **18,5** birlik, Marg‘ilon shahrida **13,0** birlik, Dang‘ara shahrida **12,6** birlik, Qo‘qon shahrida **12,5** birlik, So‘x tumanida **12,5** birlik, Oltiariq tumanida **12,3** birlik, Rishton tumanida **11,8** birlik, O‘zbekiston tumanida **11,7** birlik kuzatildi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida har 1000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Quvasoy shahar  
19,1

Farg‘ona shahar  
18,5

Marg‘ilon shahar  
13,0

Dang‘ara tumani  
12,6

Qo‘qon shahar  
12,5

So‘x tumani  
12,5

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha 2022-2023-yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, 2022- y. birlikda 2023- y.

235	Oltiariq tumani	200
181	Qo'shtepa tumani	117
188	Bag'dod tumani	194
218	Buvayda tumani	186
204	Beshariq tumani	170
214	Quva tumani	279
184	Uchko'prik tumani	173
192	Rishton tumani	129
123	So'x tumani	120
262	Toshloq tumani	296
218	O'zbekiston tumani	177
193	Farg'ona tumani	160
239	Dang'ara tumani	202
147	Furqat tumani	133
131	Yozyovon tumani	131
638	Farg'ona shahar	810
399	Qo'qon shahar	361
165	Quvasoy shahar	299
261	Marg'ilon shahar	285

2023- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da

Farg'ona sh	18,3
Qo'qon sh	8,2
Quvasoy sh	6,8
Toshloq t	6,7
Marg'ilon sh	6,4
Quva t	6,3
Dang'ara t	4,6
Oltiariq t	4,5
Bag'dod t	4,4
Buvayda t	4,2
O'zbekiston t	4,0
Uchko'prik t	3,9
Beshariq t	3,8
Farg'ona t	3,6
Furqat t	3,0
Yozyovon t	3,0
Rishton t	2,9
So'x t	2,7
Qo'shtepa t	2,6


2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Farg'ona shahri – 18,3 %, Qo'qon shahar – 8,2 %, Quvasoy shahri – 6,8 %, Toshloq tumani – 6,7 %, Marg'ilon shahar – 6,4 %, Quva tumani – 6,3 %, Dang'ara tumani – 4,6 %, hissalariga to'g'ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yillar yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



2023- yilning yanvar-iyun oyida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




■ 2022- y. ■ 2023- y.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **1 774** ta, sanoatda **999** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **411** ta yangidan tashkil etilgan.


Farg'ona viloyatining tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona **810** ta, Qo'qon **361** ta hamda Quvasoy shaharlarida **299** ta yangitdan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023-yillar yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023-yillar yanvar-iyun oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tibori natijasida Farg'ona viloyatida 2019-2023- yillar davomida jami **20 672** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **8 871** (yoki **42,9 %**) ta, sanoat sohasida - **5 027** ta (yoki **24,3 %**), xizmatlar sohasida - **4 021** ta (yoki **19,5 %**), qurilish sohasida - **1 407** ta (yoki **6,8 %**) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **1 346** ta (yoki **6,5 %**) ni tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangi tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangi tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi, % da
<b>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>		
Aralash qishloq xo‘jaligi	247	17,8
Parrandachilik	140	10,1
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	125	9,0
Ko‘chatxona mahsulotlari ishlab chiqarish	107	7,7
Dehqonchilik sohasida boshqa xizmatlar ko‘rsatish	79	5,7
<b>Sanoat</b>		
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	554	9,5
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoe ishlab chiqarish	477	8,2
Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish	425	7,3
Beton, qurilish gipsi va tsementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish	292	5,0
Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish	236	4,0
<b>Qurilish</b>		
Turar-joy binolarini qurish	496	31,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	334	21,3
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	262	16,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari	123	7,8
Elektrotexnik va montaj ishlari	87	5,5
<b>Savdo</b>		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	3593	31,6
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	2597	22,9
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	731	6,4
Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	700	6,2
Avtomobillarni yuvish, sayqallash va shu kabi faoliyat	378	3,3
<b>Xizmatlar sohasi</b>		
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	1472	26,7
Avtomobil transportida yuk tashish	383	7,0
Simsiz aloqa xizmatlari ko‘rsatish	363	6,6
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	247	4,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	232	4,2

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'ngi 5 yilda eng ko'p savdo sohasining ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **3 341 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarning **42,1 %**ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikatay mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

## 2023-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

## 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da



2018- y.      2019- y.      2020- y.      2021- y.      2022- y.      2023- y.

## 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




Yo'lovchi aylanmasi    Qishloq xo'jaligi    Yo'lovchi tashish    Yuk aylanmasi    Yuk tashish    Savdo

2023-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **67,4** %ni tashkil qilib, 2022- yilga nisbatan **0,4** punktga ko'paygan. Ko'payishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qiymat hajmining kamayishi bilan ifodalanadi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **97,3** %ni, qishloq xo'jaligida **96,2** %ni, yo'lovchi tashishda **96,1** %ni, yuk aylanmasi **95,8** % yuk tashish **92,9** %ni tashkil etdi.

## 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sohalar bo'yicha YAHMdagi ulushi, % da




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida 2023-yilnign yanvar-iyunida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida 2023-yilnign yanvar-iyunida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida 2023-yilnign yanvar-iyunida investitsiya faoliyati




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida 2023-yilnig yanvar-iyunida qishloq xo'jaligi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida 2023-yilnig yanvar-iyunida chakana savdodagi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida 2023-yilnig yanvar-iyunida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, *mlrd. so'm*



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6 668,4** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahar (**1 062,0** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**934,6** mlrd. so'm), Qo'qon shahar (**747,7** mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (**661,9** mlrd. so'm) va Qo'shtepa tumani (**410,7** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. So'x tumani (**49,5** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da**




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillar yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yilning yavar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **44,5 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini So'x tumani (**100,0 %**), Furqat tumani (**100,0 %**), Yozyovon tumani (**100,0 %**), Marg'ilon shahar (**97,3 %**), Dang'ara tumani (**74,4 %**), Uchko'prik tumani (**74,3 %**), Buvayda tumani (**71,1 %**), Beshariq tumani (**69,8 %**), Rishton (**68,5 %**) va Bag'dod (**63,2 %**) tumanlari tashkil etdi.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

## 2023- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi



foizi ■ hajmi ■ foizi

## 2018-2023 –yillar yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3 715,8** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **78,7 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,1 %**ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (**1 040,8** mlrd. so'm), Farg'ona tumani (**348,3** mlrd. so'm), Qo'qon shahri (**311,2** mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (**248,0** mlrd. so'm), Toshloq tumani (**204,5** mlrd. so'm), Oltiariq tumani (**175,4** mlrd. so'm) hamda Bog'dod (**157,7** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


## 2018-2023-yillar yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


## 2018-2023 – yillar yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2023- yilning yanvar-iyun oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **4 901,3** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **69,1** %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **122,0** %ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Qo'shtepa tumani (**1 126,7** mlrd. so'm), Farg'ona shahar (**1 009,7** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**995,0** mlrd. so'm), Qo'qon shahar (**839,5** mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (**827,4** mlrd. so'm), Toshloq tumani (**620,2** mlrd. so'm) hamda Quvasoy (**530,0** mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

## 2018-2023-yillar yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.


## 2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



■ hajmi ■ foizi

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


2018-2023-yillar yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **15 477,1** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **96,4** %ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yilga nisbatan **104,7** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Oltiariq tumani (1 458,1 mlrd. so'm), Rishton tumani (1 199,0 mlrd. so'm), Beshariq tumani (1 170,5 mlrd. so'm), Quva tumani (1 150,1 mlrd. so'm), O'zbekiston tumani (1 126,5 mlrd. so'm) hamda Bog'dod (1 070,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023 –yillar yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

## 2018-2023- yillar yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9 731,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **91,5** % ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **106,5** %ni tashkil qildi.

2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

## 2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

Qo'qon sh	1 901,9
Marg'ilon sh	1 456,4
Farg'ona sh	1 429,9
Uchko'prik t	735,4
Quva t	521,4
Buvayda t	496,8
Beshariq t	406,5
Oltiariq t	346,7
Farg'ona t	320,1
Rishton t	306,6
Qo'shtepa t	263,4
Bag'dod t	257,5
Toshloq t	237,3
O'zbekiston t	219,5


## 2018-2023 –yillar yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qo'qon shahri (**1 901,9** mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (**1 456,4** mlrd. so'm), Farg'ona shahri (**1 429,9** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**735,4** mlrd. so'm), Quva tumani (**521,4** mlrd. so'm) va Buvayda (**496,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillar yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **7 989,7** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **64,3** %ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **106,2** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Farg'ona shahri (**1934,4** mlrd. so'm), Qo'qon shahri (**1484,1** mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (**911,4** mlrd. so'm), Oltiariq tumani (**455,7** mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (**319,2** mlrd. so'm), Farg'ona tumani (**267,9** mlrd. so'm) va Buvayda (**258,4** mlrd. so'm) tumanilari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

## Xizmatlar sohasida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari




Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi shaxsiy xizmatlarda – **99,6 % (601,0 mlrd. so'm)**, ijara prokat xizmatlarida – **98,1 % (222,7 mlrd. so'm)**, Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari – **96,2 % (302,7 mlrd. so'm)** hamda Savdo xizmatlarida **96,0 % (3 522,2 mlrd. so'm)**ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **3,8 % (104,2 mlrd so'm)** kuzatildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2023-yilning yanvar-iyun oyida eksport faoliyati


Hajmi, mlrd. AQSH dol.




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2023-yilning yanvar-iyun oyida import faoliyati

Hajmi, mlrd. AQSH dol.

Ulushi, %da




## 2018-2023- yillar yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **236,4** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **69,6 %**ini tashkil etdi.

## 2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi




foizi ■ hajmi ■ foizi

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi So'x tumanida – **100,0 %**, Furqat tumanida – **100,0 %**, Yozyovon tumanida – **100,0 %**, Marg'ilon shaharda – **99,0 %**, Oltiariq tumanida – **97,2 %**, Uchko'prik tumanida – **91,4 %**, Quvasoy shaharda – **85,2 %**, Bag'dod tumanida – **75,4 %**, va Buvayda tumanida – **72,3 %**, eng past ko'rsatkich Toshloq tumanida – **34,2 %**ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

## 2018-2023-yillar yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **512,2** million AQSH dollarini yoki jami importning **81,1** % ini tashkil etdi.

### 2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi So'x tumanida – **100,0** %, Furqat tumanida – **100,0** %, Yozyovon tumanida – **100,0** %, Oltiariq tumanida – **100,0** %, Marg'ilon shahrida – **99,9** %, Buvayda tumanida – **97,0** %ni tashkil etdi.




# Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk  
tashishda

2023- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,9 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,0 %** ni tashkil qildi.



Yuk  
aylanmasida

2023- yilning yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,8 %**ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,7 %**ni tashkil qildi.



Yo'lovchi  
tashishda

2023- yilning yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,1 %**ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,6 %**ni tashkil qildi.




Yo'lovchi  
aylanmasida

2023- yilning yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,3 %**ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **103,2 %**ni tashkil qildi.

# Kichik korxonaga va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2023- yil II- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yilning II- chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonaga va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **2 020** ta kichik korxonaga va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **788 (39,0 %)**tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **1 113 (55,1 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **119 (5,9 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **41,8 % ( 844 ta)**, xizmatlar sohasida – **29,0 % (586 ta)**, sanoatda – **17,7 % (357 ta)**, qurilishda – **8,4 % (169 ta)** , qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3,1 % (64 ta)**ni tashkil etdi.

## 2023- yilning II- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


## 2023- yilning II- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona shahri (367 ta), Qo'qon shahri (214 ta), Marg'ilon shahri (171 ta), Oltiariq tumani (128 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillar yanvar-iyun oylari uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2019- yilda **851** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **788** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **63** taga kamaygan.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2019- yilda **761** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilda **1113** ta yoki **352** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019- yilda **39** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **119** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **80** taga oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023 yillar yanvar-iyun oylari uchun umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik**




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilda **962** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **741** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **221** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilda **429** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilda **1 247** ta yoki **818** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2019- yilda **22** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **32** tani tashkil etib, **10** taga oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillar yanvar-iyun oylari uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilda **51,6 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **39,0 %** ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **12,6 %** birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilda **46,1 %** bo'lgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2023- yilda **55,1 %** yoki 2019- yilga nisbatan **9,0 %** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilda **2,3 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **5,9 %** yoki 2019- yilga nisbatan **3,6 %** birlikka oshgan.

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillar yanvar-iyun oylari uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilda **68,2 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **43,2 %** ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **25,0 %** birlik kamaygan.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilda **30,3 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilda **52,8 %** yoki **22,5 %** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilda **1,5 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **4,1 %** yoki **2,6 %** birlikka oshgan.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning II- choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **40,7** %ni, xizmatlar sohasida – **30,4** % ni, sanoatda – **17,7** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **43,4** % ni, xizmatlar sohasida – **27,8** % ni, sanoatda – **17,8** % ni, qurilishda – **7,9** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **32,8** %ni, xizmatlar sohasida – **31,9** %ni, sanoatda – **16,0** %ni tashkil etdi.

## 2023- yilning II-choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



2023- yilning II- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **42,4 %** ni, xizmatlar sohasida – **30,7 %** ni, sanoatda – **16,0 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **41,6 %** ni, xizmatlar sohasida – **27,3 %** ni, sanoatda – **19,4 %** ni tashkil etdi.

**Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **34,6 %**ni, sanoatda – **28,8 %**ni, xizmatlar sohasida – **15,5 %**ni tashkil etdi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	37,8	57,1	5,1
<b>Band bo'lganlar soni</b>	19,4	78,0	2,6
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	28,2	69,2	2,6
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	26,4	70,1	3,5
<b>Raqobat muhiti</b>	36,7	61,7	1,6

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	43,3	54,0	2,7
<b>Band bo'lganlar soni</b>	24,8	73,3	1,9
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	31,4	66,0	2,5
<b>Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari</b>	31,0	66,5	2,5
<b>Raqobat muhiti</b>	38,0	60,2	1,8


\* Faqat raqobat muhitiga tegishli

# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



\* Faqat raqobat muhitiga tegishli